

**TEXNIKA YO'NALISHIDAGI TALABALARNI O'QITISH JARAYONIDA
INNOVATSION TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH**

Uzaydullayev Akmaljon Olimovich

Guliston davlat universiteti

Oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasi dotsenti

uzaydullayevakmal@gmail.com

Xamdamov Muzaffar Berdikulovich

Guliston davlat universiteti

Oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: xamdamov1605@gmail.com

Omonova Shahnoza Murod qizi

Guliston davlat universiteti

Ishlab chiqarish fakulteti

Oziq ovqat xavfsizligi yo'nalishi

1-bosqich magistri

E-mail: shahnozaomonova829@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'qituvchi texnika fanlarini o'qitishda shaxs omillarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini muammoli ta'lim bilan o'tkazish orqali talabalar o'z ustida ishlashishi, ilmiy bilish metodlarini qo'llay olishi, muammolarni yechish ko'nikmasi ega bo'lishi keltirilib o'tilgan.

Abstract

In this article, the teacher, taking into account personal factors in the teaching of technical sciences, by conducting classes with problem-based learning, students can work on themselves, use the methods of scientific knowledge, the presence of problem-solving skills is mentioned.

Kalit so'zlar

O'qituvchi, talaba, muammoli vaziyat, metod, muammoli ta'lim, ishonch, hurmat, ta'lim, mustaqil.

Keywords

Teacher, student, problem situation, method, problem learning, trust, respect, education, independence.

O'quv faoliyati-bu insonda muvaffaqiyatli mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida uni o'qitish hamda tarbiyalashga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan to'plangan tajriba,

bilimlar, malaka va ko'nikmalar shaklida o'zgartirish hamda uni o'sib kelayotgan avlodga berishdan iborat. O'quv faoliyati insonning individual rivojlanishi bilan uzviy bog'liq va uning hamma davrida-bolalikdan boshlab, to ulg'aygan davrigacha mavjud bo'ladi. Shuning uchun tarixiy ijtimoiy hodisa hisoblanmish o'quv jarayoni o'z rivojlanish tarixiga ega.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustivor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadiga yo'naltirilgan. Bular o'zgaruvchan o'quv rejalari va dasturlari, maxsus ta'lim dasturlari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish kabilarini o'z ichiga oladi. Innovatsion ta'limning xususiyatlari, ya'ni birlashma va qo'shma resurslardan foydalanish, shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalari va sifatini yaxshilash uchun professional faoliyat ta'lim va umuman ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligi rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Shuni tushinish kerakki, innovatsiya barcha turdagi yangiliklarni yaratish bilan bog'liq va amalga oshirish jarayonidir. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish muhitida ma'lum bir usulni tadbqiq etilishi sohasiga yangi narsaning kirib borishi, unga joylashtirish va butun bir qator o'zgarishlarning yaratilishini anglatadi.

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng ta'lim sohasida bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi va uzluksiz ta'lim tizimi shaklan va mazmunan yangi rivojlanish bosqichlariga o'tdi, ya'ni o'qitish jarayoni takomillashish yo'liga o'tdi. Shuni ta'kidlash joizki, o'quv faoliyati har doim ham barkamol insonni voyaga yetkazishga, - uning ma'naviy va moddiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. O'quv faoliyati o'z rivojlanishining hamma bosqichlarida ijtimoiy yo'naltirilgan maqsadga ega. Maqsadli amalga oshiriladigan jarayon hisoblangan o'quv faoliyati ko'p qirralidir. Uning asosini shaxsan o'qitish jarayoni, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchiga bilim, malaka va ko'nikmalar majmuasiga bevosita berish jarayoni tashkil etadi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asoslari yaratildi, asosiy maqsad esa komil inson va yetuk malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, deb belgilandi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy tarkibiy qismlarini shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tashkil etib, ular o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur hujjat talablarini amalga oshirish esa ta'lim tizimini tubdan qayta qurishni, ya'ni xalq ta'limi taraqqiyotining konseptual qoidalarini qayta ko'rib chiqishni va uni qisqa vaqt ichida ijobiy hal qilishni taqozo etadi. Bu vazifalarning hal etilishi jahon ilmiy

jamg'armasidagi juda katta hajmli axborot fondidan nimani ajratib olish, qancha va qanday o'qitish masalalarining yechimi bilan bevosita bog'liqdir. Ana shu kesimda ta'lim texnologiyalarini joriy etish bilan aloqador zamonaviy muammolar oydinlashadi. Qolaversa, ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada kengroq davom ettirishni davr taqozo etmoqda. Pedagogik ta'lim amaliyotida kasbiy tayyorgarlik bilan bog'liq ayrim masalalarning o'z aksini yaxshi topmaganligi ham tegishli o'qitish metodikalarining takomillashuvini dolzarb masalaga aylantirib qo'ymoqda.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni tatbiq qilish, har bir fan bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, darslik va o'quv qo'llanmalari hamda dasturlar va ma'ruza matnlarini elektron shaklga ko'chirish, ular bilan har bir talabani ta'minlashga erishish, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga erishish, ta'lim tizimini zarur axborot vositalari bilan yetarli darajada ta'minlash, ta'lim muassasalarini kommunikatsion tarmoqlariga bog'lash kabi vazifalar muhim hisoblanadi.

Texnologiya so'zi pedagogikaga ishlab chiqarish sohasidan kirib kelgan. Bizga ma'lumki, har qanday texnologiya yakuniy natijaga qaratilgan bo'lib, bu natijani oldindan rejalashtiradi va bosqichma bosqich amalga oshiradi. Eng muhimi shundaki, har qanday texnologiyada yakuniy natija kafolatlanadi.

Texnika yo'nalishda o'qitiladigan talabalarni Internet yordamida fanlarni o'zlashtirish jarayonida: bir toifa talabalar fanni to'laroq, chuqurroq o'zlashtirishsa, ikkinchi toifa talabalar aksi, talab darajada o'rganolmayotgani ma'lum bo'ldi. Chunki, fanga doir maqbul variantdagi internet ma'lumotini tanlab olish uchun ko'plab vaqt mobaynida adabiyotlarni ko'rish, o'rganish zarur bo'ladi.

Yuzaga kelgan holat darsdan keyin talaba va o'qituvchini hamkorlikda individual ko'proq ishlashini talab etmoqda.

Mamlakatimizda texnika yo'nalishi ta'limini modernizatsiya qilish, ushbu sohaga xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, yil bo'yi sifatli mahsulotlari bilan ta'minlash kabi dolzarb muammolari bo'yicha kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, ta'lim olayotgan yoshlarga ma'naviy ahloqiy-tarbiya berishning samarali tizimini yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda, bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni o'quvchi ongiga yetkazish, yodga olish, yodda saqlash, qayta yodga tushirish, so'zlab berish, fikrni yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini anglatadi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O'zlashtirishning keyingi darajalarida talabalardan olgan bilimlarini amalda tatbiq etish, ma'lum natijalarni qo'lga kiritish, to'ldirish, boyitish, o'zgartirish, o'zining

mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lish talab etiladi. Bu o'zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.-416 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi.
3. Нуруллаев У. А. Ўқитишнинг муаммоли шакли ва унинг ўқув жорий этишнинг назарий-методик жиҳатлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2.
- 4.Alimdjanova D.I., Aliev I.T. Kimyo va oziq- ovqat texnologiyasiga oid fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: "Iqtisod-moliya". 2015. 278 bet.
- 5.Solijonov, G., Uzaydullaev, A., Kuzibekov, S., & Jankorazov, A. (2023). The role of standardization in the industry and the analytical methods of product certification. Science and innovation, 2(A3), 144-149.
- 6.Nurmukhamedov, A. A., Jankorazov, A. M., Khazratkulov, J. Z., & Tashmuratov, A. N. (2023). Methods of improving the frying process in the production of vegetable oils.
7. Sattorov, K. K., Hamdamov, M. B., & Tashmuratov, A. N. (2021). Selection and research of new modifications of stationary promoted nickel-copper-aluminum catalysts. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 438-447.
- 8.Tukhtamisheva, G. K., Sattarov, K. K., & Nuriddinov, B. R. (2023, June). Post-harvest processing of wheat grain. In American Institute of Physics Conference Series (Vol. 2789, No. 1, p. 030009).
9. Suvanova, F., Qobilova, N., & Tuxtamishova, G. (2023). Improvement of solvent recovery technology in oil extraction production. Science and innovation, 2(A1), 209-212.
10. Tukhtamishov, S., Xudayberdiyev, R., & Tukhtamishova, G. (2023). MECHANIZED APPARATUS FOR CUTTING MELON FRUIT INTO ANNULAR SLICES. Science and innovation, 2(A1), 252-255.
- 11.Turabekova, D. (2024). ANALYSIS OF THE SPREAD OF MICROBIOLOGICAL DISEASES ON GRAPE PLANTS IN THE SYRDARYA REGION. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(7), 21-27.